O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Termiz tumani, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 191200, tel.: (+99876) 36-32-200, faks.: (+99876) 36-32-200, termiz.t@exat.uz

2024 - yil 24 - may 186-8-117-Q/24 Termiz tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Surxondaryo viloyatida madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 26-apreldagi 240-son hamda Surxondaryo viloyati hokimining 2024-yil 20-maydagi 414-8-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

Termiz tumanida madaniyat, san’at hamda madaniy turizm sohasini rivojlantirish, shuningdek, milliy qadriyat va an’analarni keng targ‘ib etishga qaratilgan madaniy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligini yanada oshirish hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Surxondaryo viloyatida madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 26-apreldagi 240-son hamda Surxondaryo viloyati hokimining 2024-yil 20-maydagi 414-8-0-Q/24-sonli qarorlari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Termiz tumanida madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga;

2024-yilda Termiz tumanida namunali shaklda faoliyati yo‘lga qo‘yiladigan madaniyat markazlari ro‘yxati 2-ilovaga;

Termiz tumanidagi madaniyat markazida havaskorlik ansambllari hamda ijodiy jamoalarni tashkil etishning 2024-2027-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Madaniyat bo‘limi (Sh.Yo‘ldoshev) tuman aholisining madaniyat va san’at muassasalariga oilaviy kelishini hamda maroqli va mazmunli dam olishini tashkil etish maqsadida “Shanba — madaniyat kuni” loyihasini amalga oshirsin.

4. Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (I.Kenjayev), Termiz Agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti (A.Jurayev)
2024-2025-o‘quv yilidan boshlab ta’lim tashkilotlarida ustozlar, o‘quvchilar, talabalar, tarbiyalanuvchilarni mumtoz san’atimizning durdona asarlaridan bahramand qilish orqali yoshlarning milliy madaniy saviyasini oshirish maqsadida dars soatlaridan bo‘sh (tanaffus) vaqtlarda “Musiqiy tanaffus” loyihasini amalga oshirsin.

5. Tuman Madaniyat bo‘limi (Sh.Yo‘ldoshev) bir oy muddatda “Boysun”, “Shalola”, “Boychechak”, “Chor-qarsak”, “Bulbuli-go‘yo” kabi folklor-etnografik jamoalari, ashula va raqs ansambllarining xalqaro festivallarda ishtirok etish qo‘shma chora-tadbirlar dasturini tayyorlab tasdiqlash uchun kiritsin.

6. Tuman Madaniyat bo‘limi (Sh.Yo‘ldoshev), tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (I.Kenjayev) bilan birgalikda:

bir oy muddatda umumiy o‘rta ta’lim maktablari va madaniyat markazida mavjud barcha imkoniyatlardan samarali foydalangan hamda yoshlarning qiziqishlarini inobatga olgan holda, yoshlarni madaniyat va san’atga keng jalb etish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlarini samarali tashkil etishga qaratilgan to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘ysin.

Bunda:

a) madaniyat markazi tomonidan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida to‘garaklar faoliyatini belgilangan tartibda tashkil etish, to‘garaklarni tegishli kadrlar bilan ta’minlash, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, ko‘rik-tanlovlarni muntazam o‘tkazishni yo‘lga qo‘ysin hamda ularning mazmundorligini ta’minlasin;

tashkil etilgan to‘garaklarning to‘laqonli faoliyat yuritishi va tadbirlar o‘tkazish uchun umumiy o‘rta ta’lim maktablari binolaridan zarur xonalar ajratish va tegishli shart-sharoitlar yaratish hamda ularga o‘quvchi-yoshlar qatnovini

tizimli yo‘lga qo‘ysin;

b) madaniyat markazi va umumiy o‘rta ta’lim maktablarini zarur musiqa cholg‘ulari va boshqa jihozlar bilan ta’minlash bo‘yicha mas’ul etib tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Qalandarov va tuman hokimining o‘rinbosari R.Togayev belgilansin;

d) umumiy o‘rta ta’lim maktablari va maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘quvchi va tarbiyalanuvchilarining tanaffus va dam olish vaqtlarida mutaxassislar tomonidan saralangan milliy musiqiy to‘plam asosida maqom kuylari muntazam qo‘yib berilishini tashkil etsin;

e) 2024-yil yakuniga qadar tuman madaniyat markazining budjetdan tashqari mablag‘lari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan madaniyat markazida jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan bittadan havaskor teatr jamoasi, vokal cholg‘u ansambli, ashula va raqs ansambli hamda namunaviy bolalar ansamblini tashkil etish choralarini ko‘rsin.

7. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Qalandarov hamda tuman hokimining o‘rinbosarlari R.Togayev va B.Djo‘rayev tuman Madaniyat bo ‘limi (Sh.Yo‘ldoshevov), tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (O.Saitov) bilan birgalikda ikki oy muddatda:

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-avgustdagi 671-son qarori bilan tasdiqlangan Istirohat bog‘lari va yashil zonalarni tashkil etish metodologiyasi to‘g‘risidagi nizomga asosan mahalliy budjet, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan tushgan daromadlar hisobidan yangidan tashkil etiladigan tematik bog‘lar, xususan attraksionli hudud, yashil zonalar va jamoat parklarini tashkil etish bo‘yicha yagona konsepsiya loyihasini ishlab chiqsin va tashabbuskorlarga taklif etsin;

qayta tashkil etiladigan tematik madaniyat va istirohat bog‘ining namunaviy loyihalarini tayyorlasin.

8. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Ishmatov) mazkur qarorda keltirilib o‘tilgan tumanning mahalliy budjeti mablag‘lari hisobidan bajarilishi belgilangan vazifalarni Xalq deputatlari Termiz tumani Kengashining tegishli qarori asosida belgilangan tartibda amalga oshirilishi inobatga olsin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining

o‘rinbosari R.Togayev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimining
2024-yil “___”-maydagi
_____-sonli
qaroriga 1-ilova

Termiz tumanida madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar DASTURI

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar
1.	Tuman aholisining madaniyat va san’at muassasalariga oilaviy kelishini hamda maroqli va mazmunli dam olishlarini tashkil etish maqsadida “Shanba - madaniyat kuni” loyihasini amalga oshirish.	1. “Shanba – madaniyat kuni” loyihasi konsepsiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Konsepsiya asosida madaniyat muassasalarida spektakllar, konsert-tomosha dasturlarini tayyorlash. 3. Madaniy tadbirlarga aholining tizimli tashrifini tashkil etish.	2024-yil iyun 2024-yil iyul Reja asosida muntazam	Ijrochilar mablag‘lari	Tuman Madaniyat bo‘limi (Sh.Yo‘ldoshev)
2.	2024-2025-o‘quv yilidan boshlab, tumandagi barcha ta’lim tashkilotlarida mumtoz san’atimizning durdona asarlaridan bahramand qilish orqali o‘quvchi-yoshlarning milliy madaniy saviyasini oshirish maqsadida dars soatlaridan bo‘sh (tanaffus) vaqtlarda “Musiqiy tanaffus” loyihasini amalga oshirish.	1. Musiqiy ketma-ketliklar va dasturlari ro‘yxatini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Loyihani ta’lim muassasalarida muntazam amalga oshirish.	2024-yil sentyabr oyidan boshlab muntazam	Ta’lim tashkilotining budjetdan tashqari mablag‘lari, homiylik xayriyalari	Termiz Agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti (A.Jurayev), tuman Maktabgacha va maktab bo‘limi (I.Kenjayev), tuman Madaniyat bo‘limi (Sh.Yo‘ldoshev)

3.	Tumandagi maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarida to‘garaklar faoliyatini belgilangan tartibda tashkil etish, to‘garaklarni tegishli kadrlar bilan ta’minlash, umumta’lim maktablarida turli tadbirlar, ko‘rik-tanlovlarni muntazam o‘tkazish, ularning mazmundorligini ta’minlash	1. Amaliy chora-tadbirlar loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. To‘garaklarga madaniyat markazlari xodimlarini jalb etgan holda ijodiy to‘garaklar sonini bir barobarga ko‘paytirish. 3. Har yili kamida ikki marotaba hisobot konsertlarini tashkil etish.	2024-yil sentyabr 2024-2025-yillar chora-tadbirlar asosida	Mahalliy budjetning qo‘shimcha mablag‘lari hisobidan	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi (I.Kenjayev), tuman Madaniyat bo‘limi (Sh.Yo‘ldoshev)
4.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchila-rining tushlik dam olish vaqtlarida belgilangan me’yor asosida saralangan maxsus musiqiy to‘plam asosida maqom kuylari muntazam qo‘yib berilishini tashkil etish.	1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini maxsus ixcham audio moslamalar bilan ta’minlash. 2. Maqom kuylaridan tashkil topgan maxsus to‘plamni tayyorlash. 3. Maqom kuylari ijro etilishini tashkil etish.	2024-yil iyun oyidan boshlab muntazam	Mahalliy budjetning qo‘shimcha mablag‘lari hisobidan	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi (I.Kenjayev), tuman Madaniyat bo‘limi (Sh.Yo‘ldoshev)
5.	Tuman Madaniyat markazida musiqa ijrochiligi va ashula to‘garaklarini maxsus o‘quv dasturlari asosida o‘qitilishini yo‘lga qo‘yish.	1. To‘garaklar uchun maxsus mashg‘ulotlar o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. O‘quv dasturlarini joriy etish bo‘yicha to‘garak rahbarlari uchun qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish. 3. O‘quv dasturlari asosida to‘garak mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘yish.	2024-yil sentyabr 2024-yil sentyabr-oktyabr Reja asosida	Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari mablag‘lari	Tuman Madaniyat bo‘limi (Sh.Yo‘ldoshev)
6.	Madaniyat markazida faoliyat yuritayotgan ijodiy to‘garaklar, studiyalar va kurslardan tashqari to‘garak ishtirokchilari uchun “STEAM - ta’lim” (Science - tabiiy fanlar, Technology - texnologiyalar, Art - san’at, Mathematics - matematika) dasturini joriy etish va yangi to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish.	1. Yangi to‘garaklarni tashkil etish bo‘yicha tashabbuskorlar bilan shartnomalar imzolash. 2. Zamonaviy ta’lim dasturlarini joriy qilish.	2024-yil dekabrga qadar 2025-yil dekabr	Ijrochilar mablag‘lari	Tuman Madaniyat bo‘limi (Sh.Yo‘ldoshev)

7.	Madaniyat va san’at yo‘nalishidagi to‘garak Ishtirokchilari-ning ishlarini ommalashtirish, targ‘ib qilish hamda sotuvini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha o‘quvchi-yoshlarning ijodiy ishlarini Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining “Art shop” elektron do‘konlari orqali dunyo bozoriga olib chiqish.	1. Ijodiy ishlarni saralab olish. 2. Elektron do‘konlarni o‘rganish. 3. Ijodiy ishlarni elektron do‘konlarga joylashtirish va sotish.	2024-yil iyun oyidan boshlab muntazam	-	Tuman Madaniyat bo‘limi (Sh.Yo‘ldoshev), tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi (I.Kenjayev)
8.	Madaniyat va san’at ta’lim tashkilotlari o‘quvchi-yoshlarining milliy qadriyatlarni targ‘ib etuvchi tasviriy va amaliy san’at asarlaridan eng saralarini sotib olish orqali hududda yangi quriladigan mehmonxonalarning dizayn interyerlarini tashkil etish.	1. 2024-2030-yillarda qurilishi lozim bo‘lgan mehmonxonalar manzilli ro‘yxatini shakllantirish. 2. Milliy qadriyatlarni targ‘ib etuvchi tasviriy va amaliy san’at asarlarini tanlab olish tartibini tasdiqlash. 3. Mehmonxonalar dizayn interyerlarini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.	2024-2030-yillar davomida	Homiylik xayriyalari, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Tuman hokiming o‘rinbosari R.Togayev, tuman Madaniyat bo‘limi (Sh.Yo‘ldoshev)
9.	Aholining kitobxonlik madaniyatini yanada oshirish bo‘yicha bolalar va kattalar uchun har bir madaniyat markazlarida kutubxonalar tashkil etish.	1. Kutubxonalar tashkil etiladigan madaniyat markazlari ro‘yxatini shakllantirish. 2. Kutubxonalar moddiy-texnik bazasini mustahkamlash. 3. Kutubxonalarni adabiyotlar bilan ta’minlash.	2024-yil iyun 2024-yil dekabr 2024-2025-yillar	Mahalliy budjet mablag‘lari, homiylik xayriyalari	Tuman hokiming o‘rinbosari R.Togayev, tuman Madaniyat bo‘limi (Sh.Yo‘ldoshev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Ishmetov)
10.	Tumanda konsert-tomosha zallari, kutubxona, kinozal va to‘garak xonalari mavjud bo‘lgan bitta namunali madaniyat markazi faoliyatini yo‘lga qo‘yish.	1. Madaniyat markazlarini tashkil etish bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish. 2. Mahalliy byudjetdan mablag‘lar ajratish. 3. Qurilish ishlarini amalga oshirish va yakunlash.	2024-yil iyun 2024-yil iyul 2024-yil oktyabr	Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Xalq deputatlari tuman Kengashi, tuman hokimining o‘rinbosarlari R.Togayev, B.Djurayev, tuman Madaniyat bo‘limi (Sh.Yo‘ldoshev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Ishmetov)

11.	Madaniyat markazlarini jihozlash me’yorini ishlab chiqib tasdiqlash va shu asosida jihozlashni tashkil etish.	1. Madaniyat markazini jihozlash me’yorini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Madaniyat markazlari moddiy- texnik bazasini xatlovdan o‘tkazish. 3. Me’yor asosida madaniyat markazini jihozlanishini ta’minlash.	2024-yil iyul 2024-yil avgust Alohida reja asosida	-	Tuman Madaniyat bo‘limi (Sh.Yo‘ldoshev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Ishmetov)
12.	Madaniyat va san’at tashkilotlarini mamlakatimiz va xorijda ishlab chiqarilgan musiqa cholg‘ulari hamda tasviriy va amaliy san’at uskunalari, ovoz yozish, ovoz kuchaytirish, badiiy yoritish uskunalari va mebel jihozlari bilan ta’minlash.	1. Madaniyat va san’at tashkilotlari moddiy-texnik bazasining ta’minlanganlik darajasini xatlovdan o‘tkazish. 2. Madaniyat va san’at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha buyurtmalarni shakllantirish. 3. Madaniyat va san’at muassasalarini musiqa cholg‘ulari hamda tasviriy va amaliy san’at asbob- skunalari, ovoz yozish, ovoz kuchaytirish, badiiy yoritish uskunalari va mebel jihozlari bilan ta’minlash.	2024-yil iyun 2024-yil iyul Avgust - dekabr	Mahalliy budjetning qo‘shimcha mablag‘lari, homiylik xayriyalari	Tuman Madaniyat bo‘limi (Sh.Yo‘ldoshev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Ishmetov)
13.	Madaniyat markazlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini to‘liq joriy etish, kompyuter va boshqa zarur jihozlar bilan ta’minlash.	1. Kompyuter jihozlariga bo‘lgan ehtiyojni xatlovdan o‘tkazish. 2. Kompyuter jihozlarini xarid qilish.	2024-yil iyun 2024 - 2026-yillar	Mahalliy budjetning qo‘shimcha mablag‘lari, homiylik xayriyalari	Tuman Madaniyat bo‘limi (Sh.Yo‘ldoshev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Ishmetov)

Tuman hokimining
2024-yil “___”-maydagi
_____-sonli
qaroriga 2-ilova

2024-yilda Termiz tumanida namunali shaklda faoliyati yo‘lga qo‘yiladigan madaniyat markazlari

RO‘YXATI

T/r	Tuman nomi	Madaniyat markazi nomi	Qurilish turi
1.	Termiz tumani	4-son madaniyat markazi	Mukammal ta’mirlash

Tuman hokimining
2024-yil “___”-maydagi
_____-sonli
qaroriga 3-ilova

Termiz tumanidagi madaniyat markazida havaskorlik ansambllari hamda ijodiy jamoalarni tashkil etishning 2024-2027-yillarga mo‘ljallangan

MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

T/r	Hudud nomi	Oilaviy ansambl				Xor va vokal ansambl				Milliy cholg‘ular ansambli				Dutorchilar ansambli				Maqom va baxshi jamoalari				Karnay-surnaychilar guruhi			
		Yillar kesimida																							
		2024	2025	2026	2027	2024	2025	2026	2027	2024	2025	2026	2027	2024	2025	2026	2027	2024	2025	2026	2027	2024	2025	2026	2027
1.	Termiz t.	2	3	4	5	2	3	4	5	2	3	4	5	2	3	4	5	2	3	4	5	2	3	4	5

Termiz tumani hokimi **SH.X.Nazarov**